



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

TARJIMASHUNOSLIK: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ilmiy rahbar: **Saydamatov Ikromjon Nazirovich**,
O'zDJTU Ingliz filologiyasi fakulteti katta o'qituvchisi
ikromjonsaydamatov@gmail.com

Adhamjonova Munavvara Elyorjon qizi,
O'zbekiston davlat jahon tillari, Ingliz filologiyasi fakulteti 1-bosqich, 2416-guruh talabasi
adhamjonovamunavvara@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183927>

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjima jarayonida yuzaga keladigan ayrim leksik, stilistik, madaniy muammolarni yoritib berish orqali ularning tarjimaga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada o'zbek, rus va ingliz tillarida tarjima qilingan birliklardan namunalari keltirilib, tarjima jarayonining nozik jihatlari ochib berish va tarjimonlar duch keladigan qiyinchiliklarga yuqorida ko'rsatilgan muammolar bo'yicha yechimlarni taklif qilishni maqsad qiladi.

Kalit so'zlar: tarjimonshunoslik, tarjima turlari, tarjima jarayoni, madaniy farq, grammatik, leksik va stilistik muammolar, tarjima qilingan til birliklari namunalari.

Abstract: This article examines some of the lexical, stylistic, and cultural problems that arise in the translation process and their impact on translation. Also, the article presents examples of units translated into Uzbek, Russian and English, aims to reveal the subtleties of the translation process and to offer solutions to the difficulties translators face.

Keywords: translation studies, translation types, translation process, cultural difference, grammatical, lexical and stylistic problems, examples of translated language units.

Аннотация: В данной статье рассматриваются некоторые лексические, стилистические и культурологические проблемы, возникающие в процессе перевода, и их влияние на перевод. Также в статье представлены примеры единиц, переведенных на узбекский, русский и английский языки, ставит целью раскрыть тонкости процесса перевода и предложить пути решения трудностей, с которыми сталкиваются переводчики.

Ключевые слова: переводоведение, виды перевода, процесс перевода, культурные различия, грамматические, лексические и стилистические проблемы, примеры переведенных языковых единиц.

Tarjima turli xalqlarning o'zaro aloqasi va bir-birlariga bo'ladigan ta'sirini tezlashtiruvchi jarayondir. Tarjima tillarning kamoloti uchun zaruriy vosita sifatida ularning rivojlanish sur'atini jadallashtiradi, lug'at boyligini oshiradi va takomillashtiradi. Tarjima madaniyatlararo muloqotni tashkil etish va takomillashtirish omili hamdir. Eng qadimgi jamoalar davridanoq kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji sababli tarjima jarayoni yuzaga kelgan va bugunga qadar bu soha o'z taraqqiyoti davomida sayqallanib, turli jabhalarda o'zining beqiyos o'rni va ahamiyatini kasb etib ulgurdi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

“Tarjima” bu – ma’lum bir tildagi qo’lyozmalar, hujjatlar, badiiy asarlar, ilmiy ishlardan tortib, maqol va iboralargacha bo’lgan til birliklarini boshqa tilga o’girish, qayta yaratishdan iborat ijod turi.

Tarjimonlar tarjimashunoslikning bir turi hisoblangan **lingvomadaniyat** sohasida ko‘plab muammolarga duch kelishi mumkin. Ushbu soha “til va madaniyat” ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalarni o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. Tarjima jarayoni har bir tarjimonning individual ijod jarayoni, lekin shunday jarayonlar borki, bunda tarjimon individual munosabat bildiradi olmaydi, bu masala aksariyat holatlarda xalqning o‘ziga xosligi, ya’ni lingvomadaniy so‘zlari orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababdan bu jarayonda tarjimon shaxsiy tushunchalari bilan ish tuta olmaydi yoki tarjima jarayonida bu kabi so‘zlarni tarjimadan chiqarib ham tashlolmaydi. Bu vaziyatda madaniy tafovutni keltirib chiqarmaslik yoki oldini olish uchun bir nechta usullarni qo‘llash mumkin:

1. Transliteratsiya bu – termin asl tilida qanday bo‘lsa, grafik, ya’ni harfma-harf tarjima qilish;
2. Transkripsiya – tovush formalari orqali tarjima qilish usuli, ya’ni tarjima qilinilayotgan tilda qanday aytilsa, xuddi shunday talaffuz qilish;
3. Izohli tarjima usuli – bir tilda mavjud bo‘lgan terminni boshqa bir tilga tarjima qilish;

Leksik muammolar.

Tarjimadagi leksik muammolar ham har bir tarjimonda uchraydigan jarayondagi muammolardan biri hisoblanadi. Leksik muammolar bu – terminlar, poetic so‘zlar, varvarizmlar, neologizmlar, arxaizmlar frazeologik til birliklari (aforizm, idioma, maqol va matal) kabilar bilan bog‘liq bo‘lgan muammodir. Shuningdek, bu muammoni bartaraf etishda ikki tilli lug‘atlarning ma’lum jihatdan ahamiyati katta, lekin tarjima lug‘ati mukammal bo‘lsa-da, unda so‘zlarning barcha ma’nolarini qamrab olishning iloji yo‘q. Tarjima uchun esa nutq va nutqning mazmuni bo‘lgan matn yoki gap muhimroq. Tarjima jarayonida leksik birliklar qatnashsa-da, tarjimonning o‘zi so‘zlarning qaysi ma’nosi qo‘llanganligini anglashi kerak. Misollar orqali ko‘rsak,

Ingliz tilidagi “Break the ice” – o‘zbek tiliga “muzni eritish” deb tarjima qilinadi, lekin mazmunda esa suhbat yoki munosabatni iliq tarzda olib borish.

Leksik muammolarni hal qilish uchun tarjimon so‘zlarning kontekstdagi ma’nolarini chuqur tahlil qilishi, madaniy tafovutlarni inobatga olishi va so‘z tanlashda ijodiy yondashishi zarur. Har bir tarjima matnning umumiy mantiqiy va



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

stilistik xususiyatlarini saqlab qolgan holda, mazmuni iloji boricha to'g'ri yetkazishi kerak.

Stilistik muammolar:

Uslub yoki ilmiy atamashunoslikda – stilistika – tilshunoslik fanining bir bo'limi. U tilning tasviriy vositalari: istiora, o'xshatish, metonimiya, sinekdoxa, sifatlash kabi ko'chimlar va ulardan qanday foydalanish kerakligini o'rgatuvchi ta'limot yig'indisi. Tarjimaning bunday uslubiy xususiyati haqida Beruniy va Farobiylardan boshlab, M.V. Lomonosov va A.S. Pushkin, B.G. Belinskiy va S. Siddiqqacha, G'aybulloh as-Salomu Jumaniyoz Sharipovgacha barcha tarjimashunos olimlar o'z fikrlarini bildirganlar.

Har qanday matn tarjimasida – u xoh ilmiy matn bo'lsin, xoh badiiy yoki publitsistik – undagi turg'un birikmalar va adabiy san'at turi sanaluvchi istiora, kinoya, majozlar aynan so'zma-so'z tarjima qilinadigan bo'lsa, bunday amalda hech qanday ma'no chiqmaydi. Misollar orqali ko'rsak:

Inglizcha: never at a lose smart fellow.

Ruscha: Гусь лапчатый (хитрый, ловкий человек, плут, пройдоха)

O'zbekcha: ilonni yog'ini yalagan

Inglizcha: Time is money.

Ruscha: Время – деньги.

O'zbekcha: Vaqt – boylik.

Inglizcha: He kicked the bucket.

Ruscha: Он сыграл в ящик.

O'zbekcha: U olamdan o'tdi.

Bu misollar tarjimada stilistik muammolar qanday paydo bo'lishini va ularni hal qilishda kontekst, madaniyat va til o'ziga xosliklarini inobatga olish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, tarjimada stilistik muammolarni hal qilish uchun so'zlarning kontekstdagi ma'nosini chuqur anglash, madaniy tafovutlarni hisobga olish va muqobil tarjima usullaridan foydalanish kerak.

Grammatik muammolar:

Tarjima jarayonida grammatik muammolar turli tillarning grammatik tuzilishi, so'z tartibi, zamonlar tizimi va boshqa grammatik xususiyatlar farqlari tufayli yuzaga keladi. Bunday muammolar tarjimonning nafaqat lug'aviy bilimiga, balki grammatik



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

kompetensiyasiga ham bog'liqdir. Ingliz tilidagi gaplar misolida ko'radigan bo'lsak, o'zbek tiliga ayrim matnlar tarjima qilinganda, ba'zi hollarda leksik ma'no yo'qolishi va fe'llar mavhum ma'noga ega bo'lish holatlari kuzatiladi:

- It **seems** very interesting – Bu juda qiziq ko'rinyapti.
- He probably **got** a cold – Balki u shamollab qolgan.
- She **feels** himself strange – She o'zini g'alati his qilayapti.

Bu hollarda ot birikmalarining o'rniga semantik yuklama fe'llarga tushishini ko'rishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, fe'llar ushbu gaplarda muhim grammatik vazifani bajarib kelmoqda. Umuman olganda, grammatik muammolar tarjimaning aniqligi va tabiiyligini saqlashda katta ahamiyatga ega. Har bir tilning o'z grammatik xususiyatlari mavjud bo'lgani uchun tarjimon nafaqat lug'aviy, balki grammatik moslikka ham e'tibor qaratishi lozim. Bu muammolarni hal qilish uchun kontekstga qarab tarjima qilish, lingvistik qoidalarni yaxshi bilish va til o'ziga xosliklarini inobatga olish muhimdir.

Plexanovning tarjima jarayonida diqqat qaratish lozim deb hisoblagan uch asosiy shartni keltirib o'tsak:

1. Asar qaysi tilda yozilgan bo'lsa, o'sha tilni mukammal bilish;
2. Asar qaysi tilga tarjima qilinayotgan bo'lsa, o'sha tilni mukammal bilish;
3. Tarjima qilinayotgan asarda qanday predmet to'g'risida gap borsa, o'sha predmetdan xabardor bo'lish.

Shunday ekan, tarjimon asar tarjimasiga kirishishdan avval yuqoridagi shartlarni muvofiqlashtirish orqaligina mukammal va ma'naviy ozuqa bo'luvchi ijod mahsulini yarata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari (o'quv qo'llanma). – T., 2014.
2. Fayzullayeva M. Badiiy tarjima va bu jarayonda yuzaga keluvchi muammolar. "Journal of science-innovative research in Uzbekistan" jurnali. Volume 1, Issue 8, 2023. November. ISSN:2992-8869.
3. Shermatova S., Odiljonova M. O'zbek va ingliz adabiyotida metaforalarning foydalanish tahlili. "Oriental Renaissance". Innovative, educational, natural and social sciences.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/> badiiy tarjimaning ba'zi muammolari.
5. TP Bakhodirovna - Proceedings of International Conference on Scientific ..., INTERPRETATION OF TOURISM TERMS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES, 2023.
6. Qo'shqonov, Sh. (2009). Tarjimonlik san'ati: nazariy va amaliy masalalar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.